



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI FAOLLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Qahhorova M.S.

TerDPI boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: didaktik o'yinlar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, bilim malaka va ko'nikmakar, o'qituvchi, metodlar, texnologiyalar, komponentlar, yoshlar.

Ключевые слова: дидактические игры, учащиеся младших классов, знания, умения и навыки, учитель, методы, технологии, компоненты, молодежь.

Key words: didactic games, primary school students, knowledge, skill and skill, teacher, methods, technologies, components, young people.

Bizga ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq, sho'x bo'lishadi. Ular dars mashg'ulotlaridan ham ko'ra o'yinlar o'ynashni yoqtirishadi. Maktablarda har bir o'quvchining darslarda faol qatnashishini ta'minlovchi mashg'ulotlar asosiy o'rinni egallaydi. Bunday holatlarni ta'lim shaklining o'yinli shakllari, metodlar, didaktik o'yinlar va texnologiyalar orqali muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Didaktik o'yinlar aslida amaliy va aqliy harakatlardagi o'zaro munosabatlarni o'rnatishga xizmat qiladi. Bu 2-3 yosh, 3-4 yosh va 4-6 yoshdagi bolalar uchun muhim hisoblanadi. Didaktik o'yin -bu o'yin ko'rinishida amalga oshiriladigan faoliyatining turlaridan bittasi sanaladi.

Eng zo'r didaktik o'yinlar o'quvchilarning o'zlari mustaqil ta'lim olish prinsipida tashkil topgan, ya'ni shunday tuzilganki, bularning o'zlari o'quvchi yoshlarni malaka, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga asoslanib shunga qarab yo'naltiradi. Bizga ko'rinib turibdiki, didaktik o'yinlar ta'lim olishning ikkita asosiy komponentlarini o'zida jamlaydi, bular: kerakli ma'lumotlarni to'plash va to'g'ri yechimni qabul qila olish. Mana shunday komponentlar yoshlarda didaktik tajribani ta'minlab beradi. Biroq bunday tajribaga ega bo'lish ko'p vaqtni talab qiladi. Bunday vaqtda o'quvchilarni mustaqil ravishda malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish mashqlariga, o'rgatishdan iboratdir. Ulardan psixologik tavsiflari rivojlantiruvchi, kamol toptiruvchi o'yinlarni



ham kiritish kerak. Ya'ni: viktorinalar, boshqotirmalar, krossvordlar, rebuslar, shaxmat-shashka va aqlni charxlovchi shu kabi o'yinlarni kiritish kerak.

Didaktik o'yinlar atamasini o'yinlarga nisbatan ishlatish lozim. Sababi u maqsadli ravishda didaktikaning bir ko'rinishiga mansubdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tishda didaktik o'yinlarning ahamiyati nihoyatda katta. Sababi boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati beqaror ya'ni ko'chuvchi bo'ladi. Ularning fikrini jamlash diqqatini darsga qaratish uchun ham didaktik o'yinlar, texnologiyalardan ham foydalaniladi. Bunday didaktik o'yinlar metodlarni qo'llashdan maqsad o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar didaktik o'yinlarni (syujetli, predmetli, musobaqali) o'yinlarni mazza qilib o'ynashadi. Bunday o'yinlarni o'ynashgandan so'ng o'quvchilarga o'yin mazmuniga ko'ra yangi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Didaktik o'yinlarning samaradorligi, avvalo, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga, o'yinlarning oddiy didaktik mashg'ulotlar bilan maqsad tomon yo'naltirilganiga bog'liqdir. O'qituvchi har bir didaktik o'yinlarni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, uning mazmun mohiyati va o'yinning qanday yakunlanishi tushuntiriladi. Eng muhimi o'qituvchi bu didaktik o'yinni o'ynatib bo'lgandan keyin o'quvchilardan qanday o'zgarish bo'ldi, ulardan qanday natija olganini kuzatishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarga qo'llayotgan didaktik o'yini shunday bo'lishi kerakki, birinchi navbatda vaqtdan unumli foydalanishi, keyin esa o'quvchilarda qanday samara berishi, yoshlarni maqsadi sari yetaklayotganiga amin bo'lishi kerak. Yoshlar kelajak poydevori sanaladi, shuning uchun ham ularning ma'naviy yetuk komil inson bo'lishi, el-yurtga manfaati tegadigan inson bo'lib yetishishiga ham o'qituvchi va ota onalarning xizmati katta.

O'qituvchi didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga tarbiya va bilim berayotganda quyidagi talablarga amal qilishi shart. Bular: Didaktik o'yin tanlash va bulardan foydalanayotganda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini tayyorgarligini va o'quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda, didaktik o'yinlarning o'quvchilarga malaka va ko'nikmalar hosil qilish, ularning kelajakda barkamol, komil bo'lib va ruhan tetik bo'lib o'sishlariga qaratilgan holda tanlanadi. Didaktik o'yin o'quvchi yoshlarda o'qish motivini, ularning xohish istagini rivojlantirishga asosiy xizmatlarni o'tab beradi. Didaktik o'yinlarga misollar ko'rib chiqamiz:

Ona tili fani uchun o'quvchilarning nutqda so'zlarni faollashtiruvchi o'yin "Bolalar uchun malina" didaktik o'yini.



Maqsad: obyektning ikkita guruhga taqqoslash borasida o'quvchilarda tenglik timsolini shakllantirish, o'quvchilar nutqida so'zlarni faollashtirish.

Tarkibi: O'qituvchi aytadi:

- Bolalar, ayiq bolasi malinani juda yaxshi ko'radi. U do'stlarini davolash uchun o'rmonda butun savat yig'di. Qarang, qancha Bolalar keldi. Keling, ularni o'ng qo'limiz bilan chap tomondan o'ng tomonga qarab tartib bilan solamiz. Endi ularni malina bilan davolab chiqamiz. Barcha bolalarga yetarli bo'ladigan malina olish kerak. Ayting-chi, bolalar, qancha ayiq bor? (juda ko'p). Bolalar siz bir xil miqdordagi mevalarni olishingiz lozim. Keling bolalarni rezavorlar bilan davolaymiz. Har bir ayiq bolasiga bittadan meva berish kerak. To'g'ri, ular bir xil, ten, qancha rezavorlar bor bo'lsa, o'shancha rezavorlar bor.

Keyingi didaktik o'yinimizni matematika fanida qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Raqamni tanlang” didaktik o'yini.

Maqsad: Bolalarda geometrik shakllarga bo'lgan qiziqishni oshirish, geometrik g'iyalarni birlashtirish, geometrik shakllarni nomlashni mashq qilish.

Kerakli materiallar: Doira, kvadrat, kartonlardan kesilgan uchburchaklar, uchta geometrik lotining konturi, hisoblangan kartalar.

Mazmuni: O'qituvchi o'quvchilarga shakllarni ko'rsatadi. Har birini barmog'i bilan aylanaga oladi. O'qituvchi bolalarga topshiriq beradi. Topshiriq shundan iborat. “Sizning stollaringizda har xil shakllardagi shakllar chizilgan kartalar mavjud, laganda esa bir xil figuralar chizilgan kartalar mavjud. Kartochkalaridagi barcha raqamlarni yashirish uchun joylashtiring”. U o'quvchilaridan patnisda turgan har bir shaklni aylanaga joylashtirishni so'raydi, keyin esa uni chizilgan suratga qo'yadi.

“To'g'ri hisob” didaktik o'yini

Maqsad: Bu o'yin ham matematika fanini o'rganishda, natural, qator sonlarni tartibini o'zlashtirishda to'g'ridan to'g'ri tez hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishda yordam beradi.

Kerakli materiallar: koptok.

O'yinning mazmuni: Bolalar aylana shaklida turib olishadi. O'yinni boshlashidan oldin ular qaysi tartibda (oldinga yoki teskari) hisoblashni kelishgan holda boshlashadi. Ular bir biriga koptokni otib raqam bilan bog'lashadi. Koptokni ushlab qo'lga kiritgan o'quvchi oldingi raqamga o'zi xohlagan raqamni qo'shib keyingi o'yinchiga koptokni uzatadi. Shu tariqa o'yin davom ettiriladi. O'yinda hisoblashdan adashgan o'quvchilar o'yindan chetlashtiriladi. Oxirida qolgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Boshidan o'yinni



tark etgan o'quvchilar bilan darsdan tashqari ko'proq mashg'ulotlar olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yindan foydalanish, bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi, bundan tashqari ularning diqqatini bir joyga jamlaydi. O'tilayotgan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishda qiynalishmaydi ya'ni o'zlashtirish yengillashadi, shuningdek, bir qancha kompetensiyalar shakllanib boradi.

Adabiyotlar:

1. Aliev.A O'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyati.-Toshkent. O'qituvchi 2016
2. Toxirov J, Muxammedova. G «Matematika» darslarida innovatsiya T:TDPU 2012
3. Ismoilova M., Norqobilova R. Matematika o'qitishda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
4. Ashurova S., Norqobilova R. Boshlang'ich ta'limda olib borilayotgan zamonaviy islohotlar // Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
5. Mamatmurotova M., Norqobilova R. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash metodikasi// Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
6. Keldiyorova, M., & Norqobilova, R. (2023). Boshlang'ich ta'limda pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari. Interpretation and researches, 2(1).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari darsga bo'lgan qiziqishini, yoshlarning rivojlanish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish usullari, o'tilayotgan darsning samaradorligini oshirish usullari va o'qituvchining pedagogik mahorati haqida ma'lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация об интересе учащихся младших классов к уроку, методах использования дидактических игр в процессе развития молодежи, методах повышения эффективности урока, педагогическом мастерстве учителя.

SUMMARY

This article provides information on the interest of primary school students in the lesson, methods of using didactic games in the development process of young people, methods of increasing the effectiveness of the lesson, and the pedagogical skills of the teacher.